

QIZIQISHLARNI BILDIRISH SO'ROVNOMASI (KONSALTAT XIZMATLARI - FIRMALARNI TANLASH)

QIZIQISHLARNI BILDIRISH SO'ROVNOMASI

(KONSALTAT XIZMATLARI - FIRMALARNI TANLASH)

Mamlakat: **O'zbekiston Respublikasi**

Loyiha nomi: **M39 avtomobil yo'linining 1255-1315 km qismlarini rekonstruksiya qilish va modernizatsiya qilish.**

Tarmoq/soha nomi: **Transport**

MASLAHAT XIZMATLARI: **Moliyaviy audit xizmatlari**

Moliyalashtirish usuli: **hadli kelishuv (bo'lib-bo'lib to'lashni moliyalashtirish)**

Moliyalashtirish: **UZB-0086**

O'zbekiston Respublikasi Islom taraqqiyot banki ishtirokida "M39 avtomobil yo'lining 1255-1315-km qismlarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish xarajatlarini qoplash bo'yicha kelishuvni amalga oshirdi va ushbu mablag'larning bir qismini loyiha doirasidagi moliyaviy audit xizmatlariga yo'naltirmoqchi. Xizmatlar

- (i) Loyihaning Moliyaviy Hisobotlari - har bir moliyaviy yil oxirida Loyihaning moliyaviy holati to'g'ri va adolatli ko'rinishini aks ettirilishi yoki yo'qligi to'g'risida professional fikr/xulosa bildirishni, shuningdek, Islom taraqqiyot bankidan kelib tushadigan pul mablag'lari va o'sha paytda tugaydigan davr mobaynida amalga oshirilgan xarajatlar hisobotini o'z ichiga oladi;
- (ii) Xarajatlar to'g'risidagi hisobotda aniq va to'g'ri ko'rsatilgan xarajatlar Bank tomonidan moliyalashtirilishi mumkin va Loyihaning Moliyaviy hisobotida to'g'ri aks ettiriladi. Topshiriq Islom taraqqiyot banki va O'zbekiston hukumati tomonidan taqdim etilgan barcha loyiha resurslari auditini qamrab oladi.

Itimos, Islom taraqqiyot bankining www.isdb.org veb-saytida 2022-yil 1-dekabrda e'lon qilingan ushbu loyihaning umumiy xaridlar to'g'risidagi bildirishnoma/xabarnomasiga (GPN) e'tibor bering.

Topshiriq bo'yicha batafsil texnik topshiriq (TOR) ushbu qiziqish bildirish so'roviga ilova qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi "Avtoyulinvest" agentligi hozirda ijrochi tashkilot sifatida tegishli milliy sertifikatlangan auditorlik firmalarini ushbu xizmatlarni ko'rsatishga qiziqishlarini bildirish uchun taklif qilmoqda. Manfaatdor auditorlik firmalari xizmatlar ko'rsatish uchun yuqori malakali ekanliklarini ko'rsatadigan ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak (broshyuralar, o'xshash topshiriqlarning tavsifi, tajriba, tegishli xodimlarning malakasi va boshqalar). Ushbu ishlar uchun minimal talab quyidagi sohalarda yoki vazifalarda tajriba bo'lishi kerak:

- Shu kabi maxsus moliyaviy audit xizmatlari;
- Ko'p tarmoqli moliya tashkilotlari va/yoki xalqaro moliya institutlari tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda moliyaviy audit xizmatlarini ko'rsatish tajribasi.

Asosiy ekspertlar tanlov bosqichida baholanmaydi.

Manfaatdor auditor konsultantlar e'tiboringizni "Islom taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtiriladigan loyiha doirasida konsalting xizmatlarini xarid qilish" bo'yicha yo'riqnomaning ("Xaridlar bo'yicha yo'riqnoma") 1.23 va 1.24 bandlariga qarating, unda ITBning manfaatlar to'qnashuvi siyosati belgilab qo'yilgan.

Auditorlik firmalari o'z malakalarini oshirish uchun boshqa firmalar bilan birlashishi mumkin, lekin qo'shilish qo'shma korxonada va/yoki subkonsalting kompaniyasi shakli ekanligini aniq ko'rsatishi kerak. Qo'shma korxonada qo'shma- korxonaning barcha

sheriklari, agar tanlangan bo'lsa, butun shartnoma bo'yicha birgalikda va alohida javobgar bo'ladilar.

Auditorlik firmasi ITB tomonidan moliyalashtiriladigan loyiha doirasida konsalting xizmatlarini xarid qilish bo'yicha yo'riqnomada (2019-yil aprel) ko'rsatilgan "eng kam narx" asosida tanlov (LCS) usuliga muvofiq har yili topshiriqni bajarish uchun mahalliy nufuzli auditorlik firmalarining qisqa ro'yxatidan tanlanadi.

Manfaatdor auditorlik tashkilotlari qo'shimcha ma'lumotlarni quyidagi manzil bo'yicha soat 09:00 dan 18:00 gacha bo'lgan ish vaqti davomida (mahalliy vaqt bilan) olishlari mumkin.

Qiziqish bildirish sorovnomalari yozma ravishda quyidagi manzilga elektron pochta yoki faks orqali 2023-yil 8-maygacha (mahalliy vaqt bilan 10:00) yuborilishi kerak.

"Avtoyulinvest" agentligi

Zufar Ismatullaev

"Avtoyulinvest" agentligi direktori

Elektron pochta: piuisdb60km@gmail.com

Batafsil...